TORLAR VA SONLI FARQLAR USULI: MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING ASOSIY VOSITALARI

Azimjonova Sanobar Nizomjon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti Amaliy matematika yo'nalishi 1- kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17935079

Annotatsiya: Ushbu maqolada differentsial operatorlarning sonli farqlarga asoslangan yaqinlashishlarining nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Tor usullarining matematik asoslari, diskretlashtirish jarayoni, turli tartibli sonli farq yaqinlashish sxemalari va ularning xatolari tahlil qilingan. Birinchi, ikkinchi va to'rtinchi tartibli hosilalar uchun optimal yaqinlashish formulalari keltirilgan, ularning yaqinlashish tartiblari va xatolari tahli qilingan. Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun turli sxemalar (anig, noanig va og'irlikli sxemalar) taqdim etilgan. Maqolada yaqinlashish xatosini kamaytirish usullari, barqarorlik muammolari va zamonaviy rivojlanishlar ham muhokama qilingan. Olingan natijalar hisoblash matematikasi, sonli usullar va matematik fizika sohalarida amaliy qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: sonli farqlar usuli, tor usullari, differentsial operatorlar, yaqinlashish sxemalari, diskretlashtirish, sonli farq hosilalari, yaqinlashish tartibi, yaqinlashish xatosi, barqarorlik, adaptiv torlar, Laplas operatori, issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi, Eyler sxemasi, Krenk-Nikolson sxemasi.

Abstract: This article investigates the theoretical and practical aspects of finite difference approximations for differential operators. The mathematical foundations of grid methods, discretization processes, various order finite difference approximation schemes and their errors are analyzed. Optimal approximation formulas for first, second and fourth order derivatives are presented, with analysis of their approximation orders and errors. Various schemes (explicit, implicit and weighted schemes) for heat conduction equations are presented. The article also discusses methods for reducing approximation error, stability issues and modern developments. The obtained results can be applied in computational mathematics, numerical methods and mathematical physics.

Keywords: finite difference method, grid methods, differential operators, approximation schemes, discretization, finite difference derivatives, approximation order, approximation error, stability, adaptive grids, Laplace operator, heat conduction equation, Euler scheme, Crank-Nicolson scheme.

Kirish

Zamonaviy hisoblash matematikasi va sonli usullar murakkab fizik jarayonlarni modellashtirishda fundamental ahamiyatga ega. Qiyin analitik yechimga ega bo'lgan differentsial tenglamalar uchun "sonli farqlar usuli" yoki "torlar usuli" eng keng qo'llaniladigan va ishonchli usullardan biridir. Ushbu maqolada differentsial tenglamalarni sonli echishning asosiy tushunchalaridan biri-differentsial operatorlarning sonli farqlarga asoslangan Yaqinlashishlari va ularning matematik asoslari muhokama qilinadi.

1. Diskretlashtirish: Uzluksizlikdan diskretlikka o'tish

Har qanday matematik masalani sonli echishda birinchi qadam-argumentning uzluksiz o'zgarish sohasini diskret sohaga aylantirishdir. Bu jarayon tor qurish deb ataladi. Tor-asl soha ichida tanlangan chekli nuqtalar to'plamidan iborat bo'lib, har bir nuqta tugun deb nomlanadi.

1.1. Torlar turlari.

1.1.1. Bir jinsli tor.

Eng sodda misol-bir o'lchovli kesmadagi bir jinsli tor. Masalan, $[0,1]$ kesma N ta teng qismga bo'linadi:

$x_i = ih$, $h = \dfrac{1}{N}$, $i = 0,1,\dots,N$

Bu yerda h tor qadami deb ataladi. h qancha kichik bo'lsa, tor shuncha mayda, yaqinlashish esa shuncha aniq bo'ladi.

1.1.2. Bir jinsli bo'lmagan tor.

Ba'zi masalalarda, masalan, funktsiyaning tez o'zgaradigan sohalarida, tor qadami o'zgaruvchan bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

$h_i = x_i - x_{i-1}$, $\sum_{i=1}^{N} h_i = 1$

1.1.3. Ko'p o'lchovli torlar.

Ikki o'lchovli hol uchun (x,t) silliqligida:

$x_i = ih$, $t_j = j\tau$, $i = 0,1,\dots,N$, $j = 0,1,\dots,M$ Bu yerda h va τ mos ravishda fazoviy va vaqt qadamlari hisoblanadi.

1.2. Tor Fazolari.

Uzluksiz funktsiyalar $u(x)$ fazosi H_0 O'rniga tor funktsiyalari $y_h(x_i)$ fazosi H_h kiritiladi. Har bir tor funktsiyasi vektor sifatida ifodalanishi mumkin:

$Y = (y_1, y_2, \dots, y_N)^T$

H_h fazoda normalar kiritiladi, masalan:

Chebishev normasi: $\| y \|_C = \max_i | y_i |$

L2 normasi: $\| y \| = \left(\sum_i y_i^2 h \right)^{1/2}$

Energetik norma: $\| y \|_A = \sqrt{(Ay, y)}$ -bu yerda A musbat aniqlangan operator.

2. Sonli farqli yaqinlashish: Differentsial operatorlarni diskretlashtirish.

Differentsial tenglamalarni sonli echishning ikkinchi muhim qadami-differentsial operatorni sonli farq operatori bilan almashtirish.

2.1. Birinchi tartibli hosilalar uchun yaqinlashishlar

$Lv = dv / dx$ operatori uchun turli yaqinlashishlar mavjud:

2.1.1. O'ng sonli farq hosilasi

$$v_x = \frac{v(x+h) - v(x)}{h}$$

Yaqinlashish tartibi:

$O(h)$

Andaza (shablon):

$(x, x+h)$

Xatosi: $\psi = \dfrac{h}{2} v(\xi) + O(h^2)$

2.1.2. Chap sonli farq hosilasi

$$v_{\bar{x}} = \frac{v(x) - v(x-h)}{h}$$

Yaqinlashish tartibi:

$O(h)$

Andaza: $(x-h, x)$

Xatosi: $\psi = -\frac{h}{2}v(\xi) + O(h^2)$

2.1.3. Markaziy sonli farq hosilasi

$$v_{\dot{x}} = \frac{v(x+h) - v(x-h)}{2h}$$

Yaqinlashish tartibi:

$O(h^2)$

Andaza: $(x-h, x, x+h)$

Xatosi: $\psi = \frac{h^2}{6}v'(\xi) + O(h^3)$

2.1.4. Umumiy chiziqli kombinatsiya

$L_h^{(\sigma)}v = \sigma v_x + (1-\sigma)v_{\bar{x}}$, $\sigma \in \mathbb{R}$

Bu umumiy formulada $\sigma = 0.5$ bo‘lganda markaziy hosila, $\sigma = 1$ bo‘lganda O‘ng hosila, $\sigma = 0$ bo‘lganda chap hosila hosil bo‘ladi.

2.2. Ikkinchi tartibli hosilalar uchun yaqinlashish

$Lv = d^2v/dx^2$ uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan yaqinlashish:

$$v_{x\bar{x}} = \frac{v(x+h) - 2v(x) + v(x-h)}{h^2}$$

Yaqinlashish tartibi:

$O(h^2)$

Andaza: $(x-h, x, x+h)$

Teylor qatoriga kengaytirish orqali:

$$v_{x\bar{x}} = v''(x) + \frac{h^2}{12}v^{(4)}(x) + O(h^4)$$

Lemma: Agar $v \in C^{(4)}[x-h, x+h]$ bo‘lsa, u holda mavjud $\xi \in [x-h, x+h]$ shundayki:

$$v_{x\bar{x}} = v''(x) + \frac{h^2}{12}v^{(4)}(\xi)$$

2.3. To‘rtinchi tartibli hosila uchun yaqinlashish

Besh nuqtali andaza yordamida:

$$v_{\bar{x}x\bar{x}x} = \frac{1}{h^4}[v(x+2h) - 4v(x+h) + 6v(x) - 4v(x-h) + v(x-2h)]$$

Yaqinlashish tartibi: $O(h^2)$

2.4. Aralash hosilalar uchun yaqinlashish

Issiqlik O'tkazuvchanlik tenglamasi uchun:

$$Lv = \frac{\partial v}{\partial t} - \frac{\partial^2 v}{\partial x^2}$$

Turli Yaqinlashish sxemalari:

1.Aniq sxema (Eyler sxemasi):

$$L_{h\tau}^{(0)} v = v_t - v_{x\bar{x}}$$

Yaqinlashish tartibi: $O(h^2 + \tau)$

2.Noaniq sxema:

$$L_{h\tau}^{(1)} v = v_t - \hat{v}_{x\bar{x}}$$

Yaqinlashish tartibi: $O(h^2 + \tau)$

3.Og'irlik sxemasi (Krenk-Nikolson sxemasi):

$$L_{h\tau}^{(\sigma)} v = v_t - [\sigma \hat{v}_{x\bar{x}} + (1-\sigma) v_{x\bar{x}}]$$

Yaqinlashish tartibi:

$\sigma = 0.5$ uchun: $O(h^2 + \tau^2)$

Boshqa σ uchun: $O(h^2 + \tau)$

3. Yaqinlashish xatosi va tartibi

3.1. Yaqinlashish xatosining ta'rifi

$$\psi(x) = L_h v(x) - Lv(x)$$

$\psi(x)$ - x nuqtadagi mahalliy yaqinlashish xatosi.

3.2. Yaqinlashish tartibi

Agar V sinfdagi barcha etarlicha silliq funktsiyalar uchun:

$$\psi(x) = O(h^m)$$

bo'lsa, L_h operatori L ni m-tartib bilan yaqinlashadi deyiladi.

3.3. Xatoni kamaytirish usullari

1. Tor qadamini kichraytirish-sodda, ammo hisoblash xarajatini oshiradi.
2. Yuqori tartibli yaqinlashish sxemalari-murakkabroq, ammo aniqroq.
3. Richardson ekstrapolyatsiyasi-turli qadamli torlar natijalarini birlashtirish.
5. Adaptiv torlar-funktsiyaning o'zgarish tezligiga qarab tor qadamini o'zgartirish.

4. Matematik asoslar: Lemma va Teoremalar

4.1. Asosiy Lemma

Lemma 1: Agar $v \in C^{(2)}[x-h, x+h]$ bo'lsa:

$$v_{x\bar{x}} = v''(\xi), \quad \xi \in [x-h, x+h]$$

Lemma 2: Agar $v \in C^{(4)}[x-h, x+h]$ bo'lsa:

$$v_{x\bar{x}} = v''(x) + \frac{h^2}{12} v^{(4)}(\xi), \quad \xi \in [x-h, x+h]$$

4.2. Yaqinlashishning mavjudligi va yagonaligi

Yetarli darajada silliq funktsiyalar uchun istalgan tartibli yaqinlashishni qurish mumkin. Biroq, tartib oshgani sari:

Andaza kengayadi (ko'proq tugunlar talab qilinadi)

Hisoblash murakkabligi oshadi

Barqarorlik muammolari paydo bo'lishi mumkin

5. Amaliy qo'llash va cheklovlar

5.1. Afzalliklar

1. Soddalik-algoritmlarni amalga oshirish oson
2. Universalilik-turli differentsial tenglamalar uchun qo'llanilishi mumkin
3. Aniqlik-tor qadamini tanlash orqali aniqlikni boshqarish mumkin
4. Konvergensiya-To'g'ri tanlangan sxemalar uchun yaqinlashish kafolatlangan.

5.2. Cheklovlar.

1. Silliqlik talabi-funksiyalar etarlicha silliq bo'lishi kerak
2. Barqarorlik-ba'zi yaqinlashish sxemalari barqaror bo'lmasligi mumkin
3. Hisoblash quvvati-aniq yechim uchun ko'p resurslar talab qilinishi mumkin

4 Chegara shartlari-murakkab chegara shakllari uchun qo'shimcha muammolar

5.3. Zamonaviy rivojlanishlar.

1. Adaptiv torlar-dinamik tarzda tor qadamini o'zgartirish
2. Yuqori tartibli sxemalar-cheklangan hajmdagi elementlar usuli bilan birlashtirish
3. Parallel hisoblash-katta o'lchamdagi tizimlarni samarali yechish
4. GPU hisoblash-grafik protsessorlardan foydalanish orqali tezlikni oshirish

Xulosa

Differentsial operatorlarning sonli farqlarga asoslangan yaqinlashishlari zamonaviy hisoblash matematikasining asosiy tushunchalaridan biridir.

Ushbu usul: Nazariy jihatdan-differentsial tenglamalar nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Amaliy jihatdan-haqiqiy fizik va muhandislik masalalarini yechishda keng qo'llaniladi. Rivojlanayotgan yo'nalish-yangi algoritmlar va usullar doimiy ravishda ishlab chiqilmoqda

Tor usullarining muvaffaqiyati to'g'ri tor tanlash, mos yaqinlashish sxemasi va barqaror algoritmni tanlashga bog'liq. Matematik modellashtirning kelajagi aniqroq, samaraliroq va universalroq sonli usullarni ishlab chiqishda davom etadi, bunda differentsial operatorlarning sifatli yaqinlashishlari asosiy rol o'ynaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Samarskiy A.A. "Teoriya raznostnyx sxem"-Moscow, Nauka, 1977
2. Richtmyer R.D., Morton K.W. "Difference Methods for Initial-Value Problems"-Wiley, 1967
3. LeVeque R.J. "Finite Difference Methods for Ordinary and Partial Differential Equations"-SIAM, 2007
4. Tichonov A.N., Samarskiy A.A. "Uravneniya matematicheskoy fiziki"-Moscow, Nauka, 1972
5. Strikwerda J.C. "Finite Difference Schemes and Partial Differential Equations"-SIAM, 2004
6. Thomas J.W. "Numerical Partial Differential Equations: Finite Difference Methods"-Springer, 1995